	Tasviriy san'at ta'limida kompozitsiya o'qitishning takomillashtirilgan metodik tizimi 581 <i>Karshiboyeva Dilafuz Boxodirovna</i>
	Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda refleksiv topshiriqlarning o'rni . 584 <i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>
	STEAM yondashuvi asosida rivojlantiruvchi markazlarning samaradorligini oshirish yo'nalishlari 587 <i>O'rinova Feruza O'ljayevna, To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>
	Aholi o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari 591 <i>Davulov Ozodbek Qalandarovich</i>
	Tasavvufda ma'naviy tarbiya tushunchasi va uning nazariy-metodologik asoslari 595 <i>Satimova Sevinch Sardorbekovna</i>
	Teaching Literary and Non-Literary Forms of Speech to Young Learners 600 <i>Nargiza Tulyaganova</i>
	Pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga tayyorlashni boshqarish tizimini takomillashtirishning metod va mexanizmlari 604 <i>Aziboyev Shuhrat Olimovich</i>
	Cerebral falajli bolalarda sensor, diqqat va motor funksiyalar integratsiyasining faktorli tahlili 608 <i>Karimberdiyev Azamat Axmadjon o'g'li</i>
	O'smirlik davrida emotsional intellektni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari 614 <i>Djumabaeva Manzura Bagibekovna, Zoirova Laylo Alisher qizi, Umirboyeva Zaxro Dilmurod qizi</i>
	Zamonaviy ta'lim modellari mohiyati va ularning pedagogik tizimdagi o'rni (4K, 5E, 5I modellari misolida) 617 <i>Raxmatov Uchkun Ergashevich, Qodirova Marjona Azamat qizi</i>
	Ayollarni iqtisodiy faollikka tayyorlashda o'quv dasturlarini loyihalash tamoyillari 624 <i>Diyarova Shaxloxon Rovshan qizi</i>



Interfaol ta'lim metodlari asosida o'qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi: tajriba-sinov natijalari tahlili	628
<i>Abdiyeva Shodiyona Yodgor qizi</i>	
Raqamli muhitda maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining qo'shimcha ta'limini tashkil etish: tadqiqotlar sharhi	633
<i>Amanova Dilorom Faxritdin qizi</i>	
Kognitiv tilshunoslikda skript atamasi va uning voqelanish mexanizmlari	637
<i>Fayzullayev Shohrux</i>	
The Concept of Blended Learning and its Role in the Modern Educational Paradigm	641
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Finlyandiya boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanini o'qitish metodikasi	645
<i>G'aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna</i>	
Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish	651
<i>Isoqov Shohruh Turabek o'g'li</i>	
Communicative-Pragmatic Analysis of Binary-Based Paremias in English, Uzbek, and Russian Languages	654
<i>Jumanova Sabrina Vaydullo kizi</i>	
Internet-risk profilaktikasining bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi o'rni	659
<i>Mamatxanova Nargiza Toxirovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	663
<i>N. Sh. Abdullayeva, F. R.Valiyeva, S. S. Raximova</i>	
Musiqiy-ritmik harakatlarning asosiy komponentlari va ularni rivojlantirishda SI imkoniyatlari	667
<i>O. A. Shodiyeva</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimi asosida ta'limni tashkil etishning pedagogik xususiyatlari ..	672
<i>Y. R. Azzamov</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsion yondashuv asosida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari	676
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarda mas'uliyatni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	679
<i>Teshayeva Dilnoza Chori qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tasviriy faoliyat turlari asosida estetik tarbiyalash masalalari.	684
<i>Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna</i>	
Профессиональная рефлексия как фактор развития научного интеллекта будущего педагога в системе педагогического образования	688
<i>Анварова Хуснора, Isoxоnova Aziza</i>	
Толерантность в мультикультурном обществе	692
<i>Бекбосынова З. К.</i>	
Методика работы над ошибками как средство повышения грамотности	696
<i>Исмаилова Мадинабону</i>	
Методы и подходы к развитию профессиональной лексической компетенции студентов военных направлений	701
<i>Хамидова Нигора Тулкуновна</i>	
Raqamli ta'lim muhiti va uning maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga ta'siri	704
<i>Xayriddinova Parvinabonu Baxtiyor qizi</i>	
Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida "botanika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda elektron ta'lim resurslardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	707
<i>Nasirova Shahlo Qutbiddinovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda media ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xosligi	710
<i>Mahmudjanova Ro'za Mahmudjan qizi</i>	

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va ommaviy sport samaradorligining tahliliy jihatlari.....	714
<i>Aslanova Malohat Akramovna</i>	
Differensial yondashuv asosida o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini rivojlantirish muhim omil sifatida.....	718
<i>Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Xokimjonova Feruza Hosiljon qizi</i>	
Jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish faoliyati jarayonida oliy ta'lim muassasalari talabalarining sog'lom turmush tarzini shakllantirish	721
<i>Ne'matova Diyora Dilshod qizi</i>	
Sport gimnastikasining yoshlar jismoniy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati	725
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi (3–6 yosh) bolalarda erta ingliz tili o'rganishning psixolingvistik va pedagogik samaradorligi.....	728
<i>Xayrullayeva Muharramxon Davronbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning strategik yo'nalishlari	733
<i>O'tahanova Manzura G'ofurovna</i>	
Development of Intercultural Communication Competence of Future Teachers in Speaking Classes as an Important Lingvodidactic Problem: Evidence From Uzbekistan's Higher Education Context.....	736
<i>Muhammadiyeva Halima Saidahmadovna</i>	
Bo'lajak ona tili o'qituvchilarining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda reflektiv topshiriqlarning o'rni .	749
<i>Altibayeva Malika Kuvandikovna</i>	
Jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish muammolari va istiqbollari	752
<i>Ismailov Sarvarbek Anvarbekovich, Maxkamova Munavvarxon Alisher qizi</i>	
Psixolog talabalarda kasbiy refleksiyaning rivojlantirishning tarbiyaviy-psixologik determinantlari: muammolar va yechimlar	757
<i>Shukurova Nargiza Ikramovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishda jismoniy tarbiyaning pedagogik salohiyati	762
<i>Xudoyberdiyev Sh. M.</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalari.....	766
<i>Esanbekova Fotima G'ayratjonovna</i>	
Чеховские традиции в прозе XX века (Бунин, Платонов, Шукшин)	770
<i>Багирова Паринисо Бобировна</i>	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Esanbekova Fotima G'ayratjonovna

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Ilmiy rahbar: Achilov O'tkir Isomitdinovich

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'lim metodlari va vositalarining nazariy asoslari tahlil etiladi. Tadqiqot doirasida o'zbek, rus va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida maktabgacha ta'lim tizimida intellektual rivojlanishning psixologik-pedagogik jihatlari o'rganiladi. Olingan natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini oshirishda tizimli yondashuv hamda innovatsion metodlarni integratsiya qilish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ta'lim metodlari, didaktik vositalar, kognitiv rivojlanish, o'yin faoliyati, tafakkur, maktabgacha yosh, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: The theoretical foundations of educational methods and tools used to develop the intellectual abilities of preschool children are examined. Based on the works of Uzbek, Russian, and international scholars, the study explores the psychological and pedagogical aspects of intellectual development in the preschool education system. The findings substantiate the need for a systematic approach and the integration of innovative methods to enhance the intellectual potential of preschool children.

Key words: preschool education, educational methods, didactic tools, cognitive development, play activity, thinking, preschool age, educational technologies.

Аннотация: Рассматриваются теоретические основы педагогических методов и средств, применяемых в развитии интеллектуальных способностей детей дошкольного возраста. В рамках исследования на основе научных трудов узбекских, российских и зарубежных учёных изучаются психолого-педагогические аспекты интеллектуального развития в системе дошкольного образования. Полученные результаты обосновывают необходимость системного подхода и интеграции инновационных методов для повышения интеллектуального потенциала детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: дошкольное образование, педагогические методы, дидактические средства, когнитивное развитие, игровая деятельность, мышление, дошкольный возраст, образовательные технологии.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda yoshlarning intellektual salohiyatini erta yoshdan shakllantirish davlat ta'lim siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganidan so'ng mazkur sohaga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi va maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim sifati oshirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmogda ^[1].

Intellektual qobiliyatlar deganda bolaning atrof-muhitni bilish, fikrlash, tahlil qilish, sintez qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va muammolarni hal qilish kabi kognitiv jarayonlarning yig'indisi tushuniladi. Maktabgacha yosh davri esa inson hayotida eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, aynan shu davrda bolaning asosiy psixik funksiyalari, jumladan, tafakkuri, xotirasi, diqqati va tasavvuri jadal sur'atlarda rivojlanadi.

Rus psixologi L.S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, maktabgacha yosh "senzitiv davr" hisoblanadi, ya'ni aynan shu davrda bolaning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng qulay sharoit mavjud bo'ladi ^[2]. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan ta'lim metodlari va vositalarini ilmiy jihatdan tahlil



qilish, ularning samaradorligini baholash hamda zamonaviy talablarga muvofiq takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'lim metodlari va vositalarining nazariy asoslarini tahlil qilish hamda ularning pedagogik ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual rivojlanishi masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli jihatlardan o'rganilgan. Rus pedagogi A.V. Zaporozes maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faoliyatini tadqiq qilib, bolaning intellektual qobiliyatlari bevosita uning faoliyati jarayonida, ayniqsa, o'yin faoliyatida shakllanishini ta'kidlagan ^[3]. Olim fikricha, o'yin bolaning asosiy faoliyat turi bo'lib, aynan o'yin orqali bola atrof-muhitni o'rganadi, munosabatlarni anglaydi va tafakkur operatsiyalarini egallaydi.

D.B. Elkonin esa o'yin nazariyasini yanada chuqurroq ishlab chiqib, rolli o'yinlarning bolaning ijtimoiylashuvi va intellektual rivojlanishidagi muhim o'rnini ilmiy asoslab bergan ^[4]. Uning ta'kidlashicha, rolli o'yinlar bolaning ramziy tafakkurini, abstraksiya qilish qobiliyatini va ijodiy fikrlashini shakllantiradi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Piajening fikricha, maktabgacha yosh "operatsiyagacha" bosqichga to'g'ri keladi va bu davrda bolaning tafakkuri konkret-obrazli xususiyatga ega bo'ladi ^[5]. Bola bu yoshda ob'ektlarni manipulyatsiya qilish, ularni tasniflash va solishtirish orqali bilim oladi. Shu bois, maktabgacha ta'limda vizual-obrazli vositalar, konkret materiallar va manipulyativ o'yinchoqlardan foydalanish intellektual rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Amerikalik psixolog H. Gardner esa ko'p qirrali intellekt nazariyasini ilgari surib, har bir bolada turli xil intellektual qobiliyatlar mavjudligini ta'kidlagan ^[6]. Uning nazariyasiga ko'ra, ta'lim jarayonida bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish va turli xil intellekt turlarini rivojlantiruvchi metodlardan foydalanish zarur.

O'zbek olimlaridan M.G. Davletshin, E.G'. G'oziyev, N.T. Omonov va boshqalar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi masalalarini chuqur o'rganganlar ^[7]. Ular o'z tadqiqotlarida o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini, an'analarini va tarbiyaviy merosini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'limning milliy modelini ishlab chiqish zaruriyatini asoslab berganlar. Shuningdek, o'zbek pedagoglarining ishlarida xalq og'zaki ijodining, milliy o'yinlarning va an'anaviy didaktik vositalarning bolalar intellektual rivojlanishidagi o'rni yoritilgan.

Ta'lim metodlari jihatidan maktabgacha ta'limda ko'proq vizual, amaliy va o'yin metodlaridan foydalaniladi. N.A. Vetlugina va boshqa rus pedagoglarining tadqiqotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali metodlar bevosita kuzatish, tajriba-sinov, didaktik o'yinlar va ijodiy mashg'ulotlardir ^[8]. Bu metodlar bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi, uning qiziqishini uyg'otadi va bilish motivatsiyasini shakllantiradi.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda STEAM (fan, texnologiya, injenerlik, san'at, matematika) yondashuvi keng qo'llanilmoqda, bu esa bolaning kompleks tafakkurini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan ^[9].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuvlar qo'llanildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish jarayonida maktabgacha pedagogika sohasidagi o'zbek, rus va xorijiy olimlarning asarlari o'rganildi. Metodologik asos sifatida L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, J. Piajening kognitiv rivojlanish konsepsiyasi hamda A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda bir necha asosiy ta'lim metodlari va vositalari muhim o'rin tutadi.

Birinchidan, o'yin metodi intellektual rivojlanishning asosiy vositasi sifatida tan olingan. O'yin bolaning tabiiy faoliyat turi bo'lib, u bolani majburlashsiz, erkin sharoitda o'rganishga undaydi. Didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, konstruktiv o'yinlar va harakatchan o'yinlar bolaning turli intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan:

- didaktik o'yinlar mantiqiy tafakkurni, tasniflash va umumlashtirish operatsiyalarini shakllantiradi;
- rolli o'yinlar ijtimoiy tafakkurni, muloqot ko'nikmalarini va empatiyani rivojlantiradi;
- konstruktiv o'yinlar fazoviy tafakkurni, rejalashtirish qobiliyatini va qo'l motorikasini takomillashtiradi.

Ikkinchidan, muammoli vaziyatlar yaratish metodining samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan. Bu metod bolani mustaqil fikrlashga, yechim izlashga va kreativ yondashuvga undaydi. Muammoli vaziyatlar bolaning “nimaga?” va “nega?” kabi savollar berish faolligini oshiradi, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi. Ammo bu metoddan foydalanishda muammoning bola imkoniyatlariga mos kelishi, ya'ni “yaqin rivojlanish zonasi”da joylashishi muhimdir ^[2]. Haddan tashqari murakkab muammolar bolada frustratsiya hissini keltirib chiqarishi, juda oson vazifalar esa qiziqishni kamaytirishi mumkin.

Uchinchidan, vizual-obrazli vositalarning intellektual rivojlanishdagi ahamiyati katta. Rasmlar, sxemalar, modellar, plakatlar va boshqa ko'rgazmali vositalar bolaning vizual tafakkurini rivojlantiradi, tushunchalarni konkretlashtiradi va esda olib qolishni osonlashtiradi. J. Piajening nazariyasiga muvofiq, maktabgacha yoshdagi bola konkret-obrazli tafakkur bosqichida bo'lgani uchun mavhum tushunchalarni vizual materiallar orqali o'rgatish zarur ^[5]. Shuningdek, multimedia vositalari, interfaol doska va ta'limiy dasturlar zamonaviy maktabgacha ta'limda keng qo'llanilmoqda. Biroq, raqamli vositalardan foydalanishda muvozanatni saqlash lozim, chunki bolaning jismoniy faolligi va jonli muloqoti intellektual rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, san'at va musiqa mashg'ulotlarining intellektual rivojlanishga ijobiy ta'siri ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. Rasm chizish, modellashtirish, applikatsiya va boshqa ijodiy faoliyatlar bolaning nozik motorikasini, estetik didini va kreativ tafakkurini rivojlantiradi. Musiqiy mashg'ulotlar esa ritmi his qilish, diqqatni jamlash va xotirani mustahkamlashga yordam beradi. H. Gardnerning ko'p qirrali intellekt nazariyasiga ko'ra, musiqiy va tasviriy-fazoviy intellekt umumiy intellektual rivojlanishning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi ^[6].

Shaxsiy tahlilimizga ko'ra, maktabgacha ta'limda intellektual qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozim:

- *birinchidan*, bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- *ikkinchidan*, turli xil metodlar va vositalarni integratsiyalash;
- *uchinchidan*, bolaning faol ishtirokini ta'minlash;
- *to'rtinchidan*, o'yin va qiziqarli faoliyat orqali ta'lim berish;
- *beshinchidan*, ijobiy emotsional muhitni yaratish.

Shuningdek, tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining muhimligi alohida ta'kidlanishi lozim, chunki bolaning intellektual rivojlanishi faqat maktabgacha ta'lim muassasasida emas, balki oilada ham davom etishi kerak ^[10].

Nutq rivojlanishi va intellektual qobiliyatlar o'rtasidagi dialektik bog'liqlik adabiyotlar tahlilida alohida e'tibor qaratilgan masalalardan biridir. L.S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, nutq va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutqning rivojlanishi tafakkurning yangi bosqichlarga ko'tarilishiga zamin yaratadi ^[2]. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutq orqali tushunchalarni egallaydi, o'z fikrlarini ifodalashni o'rganadi va boshqalar bilan muloqot qilish jarayonida yangi bilimlar oladi. Shu bois, maktabgacha ta'limda badiiy adabiyotni o'qish, ertak aytib berish, she'rlar yodlash, so'z o'yinlari va muloqotga asoslangan mashg'ulotlar intellektual rivojlanishning muhim vositalari sifatida qaraladi. Bolaning lug'at boyligini kengaytirish, grammatik to'g'ri nutqni shakllantirish va bog'lanishli nutqni rivojlantirish uning tafakkur operatsiyalarini, xususan, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish va abstraksiyalash qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki va undan ortiq tilni erta yoshdan o'rganayotgan bolalarda kognitiv moslashuvchanlik, ijodiy tafakkur va muammolarni hal qilish qobiliyatlari bir tilli tengdoshlariga nisbatan yuqori darajada rivojlanadi, bu esa ko'p tillilik va intellektual rivojlanish o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiyani tasdiqlaydi.

Ta'lim muhitining tashkil etilishi va predmetli-fazoviy muhitning intellektual rivojlanishga ta'siri ham muhim omil sifatida tan olingan. M. Montessori pedagogik tizimining asosiy g'oyalardan biri shundaki, bolaning intellektual rivojlanishi uchun maxsus tayyorlangan muhit yaratilishi zarur ^[3]. Bu muhitda bola o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan materiallarni mustaqil tanlash, ular bilan ishlash va o'z sur'atida o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida guruh xonalarining jihozlanishi, o'yin va mashg'ulot zonalarining ajratilishi, didaktik materiallar va o'yinchoqlarning sifati hamda xilma-xilligi bolaning bilish faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boy va rag'batlantiruvchi muhitda tarbiyalangan bolalarda qiziquvchanlik, tadqiqotchilik ko'nikmalari va mustaqil fikrlash qobiliyati yuqori darajada shakllanadi. Shuningdek, tabiat bilan muloqot, ekologik tarbiya va atrof-muhitni kuzatish mashg'ulotlari bolaning sensor tajribasini boyitadi, sabab-oqibat aloqalarini anglash qobiliyatini rivojlantiradi va ilmiy tafakkurning dastlabki asoslarini shakllantiradi. Shunday qilib, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda nafaqat ta'lim metodlari, balki ta'lim muhitining sifati ham hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy jihatdan asoslangandir.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta'lim metodlari va vositalarining tanlovi muhim ahamiyatga ega. O'yin metodi, muammoli vaziyatlar yaratish, vizual-obrazli vositalardan foydalanish va ijodiy mashg'ulotlar intellektual rivojlanishning samarali usullari sifatida tan olingan. Maktabgacha yosh davrining sezitivligi hisobga olingan holda, bu davrda bolaning intellektual salohiyatini maksimal darajada ochish va rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan pedagogik strategiyalar qo'llanilishi lozim.

Zamonaviy maktabgacha ta'limda an'anaviy va innovatsion metodlarning uyg'unligi, bolaning individual xususiyatlariga e'tibor berish va tizimli yondashuv intellektual rivojlanishning kafolati hisoblanadi. Kelgusida maktabgacha ta'lim muassasalarida intellektual qobiliyatlarni rivojlantiruvchi dasturlar va texnologiyalarni yanada takomillashtirish, tarbiyachilarning kasbiy malakasini oshirish hamda oila bilan hamkorlikni mustahkamlash zarur. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar maktabgacha ta'lim sifatini oshirish va bolalarning to'laqonli intellektual rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.09.2024-yildagi PF-152-son, <https://lex.uz/docs/-7128182>
2. Выготский Л.С. Мышление и речь / Л.С. Выготский. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
3. Запорожец А.В. Избранные психологические труды: в 2-х т. / А.В. Запорожец. – М.: Педагогика, 1986. – Т. 1. – 320 с.
4. Эльконин Д.Б. Психология игры / Д.Б. Эльконин. – М.: Владос, 1999. – 360 с.
5. Piaget J. The Psychology of Intelligence / J. Piaget. – London: Routledge, 2001. – 202 p.
6. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences / H. Gardner. – New York: Basic Books, 2011. – 440 p.
7. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya / E.G'. G'oziyev. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 544 b.
8. Ветлугина Н.А. Эстетическое воспитание в детском саду / Н.А. Ветлугина. – М.: Просвещение, 1985. – 207 с.
9. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education / G. Yakman // Pupils' Attitudes Towards Technology. – 2008. – P. 335–358.
10. Xo'jayev B.X. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish / B.X. Xo'jayev. – Toshkent: Fan, 2019. – 180 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.